


PEDAGOGIK MAHORAT

3
2024



CHET ELLIK TALABALARNING O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA MUVAFFAQIYATLI MOSLASHUV KATEGORIYALARI

Nazarova Manzura Mustaf o qizi,

Buxoro davlat universiteti psixologiya va sotsiologiya kafedrasi tayanch doktoranti

Ushbu maqolada xorijiy talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosi, bu jarayonning natijasi, ijtimoiy moslashuvning o‘ziga xos xususiyati, individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari haqida aytiladi. Ijtimoiy adaptatsiya shaxs ijtimoiylashuvining asosiy psixologik omillari sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi, individning ijtimoiy aloqalarini qanchalik o‘xshash anglashi, bugungi kasbiy tayyorgarlikning, ta’lim xizmatlarining jahon bozorida ahamiyati haqida fikrlar keltiriladi. Shuningdek, bugungi zamon talablariga javob beradigan, shart-sharoitlarga moslashgan va jahon mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash uchun muhim bo‘lgan omillar sanab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Integratsiya, adaptatsiya, atribut, diversifikatsiya, modernizatsiya, madaniyatlararo aloqa, psixologik to‘siq, stress.*

КАТЕГОРИИ УСПЕШНОЙ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ К СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

В данной статье рассматривается проблема социально-психологической адаптации иностранных студентов, результат этого процесса, специфика социальной адаптации, периоды коренного изменения индивидом своей деятельности и социального круга, который его окружает. Социальная адаптация характеризуется как основные психологические факторы социализации личности. Даны представления об эффективности социальной адаптации, о том, насколько сходно восприятие индивидом социальных связей, о значении сегодняшней профессиональной подготовки, мирового рынка образовательных услуг. Также будут перечислены факторы, которые важны для подготовки выпускников, отвечающих современным требованиям, адаптированных к условиям и пользующихся высоким спросом на мировом рынке труда.

Ключевые слова: *интеграция, адаптация, атрибуция, диверсификация, модернизация, межкультурная коммуникация, психологический барьер, стресс.*

CATEGORIES OF SUCCESSFUL ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS TO THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN

This article tells about the problem of socio-psychological adaptation of foreign students, the result of this process, the peculiarity of social adaptation, the periods of radical transformation of the individual's own activity and the social circle surrounding himself. Social adaptation is described as the main psychological factors of personality socialization. Opinions are given about the effectiveness of social adaptation, how similar an individual understands social ties, the importance of today's professional training, educational services in the world market. Also listed are factors that meet the requirements of today's time, are important for the training of graduates who have adapted to the conditions and are in high demand in the world labor market.

Keywords: *integration, adaptation, attribution, diversification, modernization, intercultural communication, psychological barrier, stress.*

Kirish. Xorijiy talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosi uzoq vaqtdan beri ilmiy munozaralarda ham, ommaviy muhokama maydonchalarida ham turli bahslarga, tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy adaptatsiya jarayoni individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda, individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari bilan bog‘laydilar. Ijtimoiy adaptatsiya shaxs ijtimoiylashuvining asosiy psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan individning ijtimoiy aloqalarini qanchalik o‘xshash anglashiga bog‘liqdir.

Mavzuning dolzarbligi. Shundaki, bugungi kunda bir tomondan, kasbiy tayyorgarlikning turli yo‘nalishlari va darajalari bo‘yicha ko‘plab takliflarni o‘z ichiga olgan ta’lim xizmatlarining jahon bozori shakllanmoqda. Xorijiy talabalar oqimi esa jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh ta’lim tizimining muhim mezoni hisoblanadi. Ta’lim muhitidagi ijtimoiy harakatchanlik odamlar ta’lim olish uchun

kelgan mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy ta‘lim tizimida modernizatsiyalashuv jarayoni dunyoning turli mamlakatlarida yuqori sifatli ta‘lim xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, bugungi zamon talablariga javob beradigan, shart-sharoitlarga moslashgan va jahon mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash ham muhim maqsad sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu masalani rivojlantirishni kun tartibiga kiritgan davlatlar o‘zlarining ta‘lim maydonida xorijiy talabalar oqimini ko‘paytirishga intilmoqdalar. O‘zbekiston ham bundan mustasno emas, u ta‘lim migratsiyasi siyosatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga intiladi. Jahon ta‘lim xizmatlari bozoridagi muvaffaqiyatli raqobat ham iqtisodiy, ham ma‘naviy, ham ijtimoiy, ham ma‘rifiy sohalarida o‘zining samarasini beradi. Qolaversa, O‘zbekistonga o‘qish uchun kelgan chet ellik talabalar beixtiyor ravishda mamlakatimiz madaniy me‘yorlari va an‘analarining bevosita keng yoyilishiga hissa qo‘shadilar. Bundan tashqari, ta‘lim eksporti mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijlik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi nafaqat uning faoliyati bilan bog‘liq, shuningdek, ushbu subyektaga qaratilgan boshqa shaxslarning, masalan, o‘qituvchilar, ma‘muriyat, kursdoshlar va hokazolarning birgalikda amalga oshiradigan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Muvaffaqiyatli moslashish uchun chet ellik talabalar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar kerakli miqdorda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi va talabalarni imkon qadar tezroq o‘rganishga harakat qilishi kerak. Institut jamoasi chet ellik talabalar tahsil olayotgan oliy ta‘lim dargohiga moslashish davrlarining qulay o‘tishi va har xil yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, sifatli ta‘lim olish uchun to‘siqlar hamda psixologik stresslarni yengib o‘tishni ta‘minlaydigan dastlabki minimal bilimlarga ega bo‘lishlari lozimdir. Xususan, bunday ishda muhim tarkibiy qism sifatida (mumkin bo‘lganlardan biri sifatida) “buni bilish kerak” intensiv moslashish kursini taklif qilinishi mumkin. Albatta, u barcha moslashuv qiyinchiliklarini va madaniy shok muammosini butunlay bartaraf eta olmaydi, lekin chet ellik talabalarning o‘zlari uchun notanish bo‘lgan muhitda, sharoitda psixologik adaptatsiyani tezroq va osonroq hosil qilishlari uchun birmuncha ko‘mak beradi. "Buni bilish kerak" kursi chet ellik talabalar uchun intensiv moslashish kursidir. Kurs mazmuni chet ellik talaba uchun mamlakatda, shaharda, universitetda bo‘lgan dastlabki kunlarida zarur bo‘lgan ma‘lumotlarning barcha zarur jihatlari qamrab oladi. Kurs quyidagilarga mo‘ljallangan: 11 akademik soat 2-3 kun ichida o‘qilishi mumkin. Ma‘ruzalarga chet ellik yuqori kurs talabalaridan birini jalb qilish tavsiya etiladi. Kurs mavzusi huquqiy, mamlakatshunoslik ma‘lumotlarini qamrab oladi, tarixiy, madaniy, lingvistik va ma‘lumotnoma xarakteriga ega bo‘lishi mumkin. Kurslar rus yoki ingliz tilida o‘tilishi mumkin. Agar chet ellik talabalar mazkur tillardan birortasini ham bilmaydigan bo‘lsa kursni ona tilida o‘qishi tavsiya etiladi.

Ma‘lumki, turli millat va elatlarning urf-odatlarini hamda xarakter xususiyatlari umuminsoniy ma‘noda standartlar, stereotiplar to‘plami bilan ifodalanadi. Stereotiplar-odamlarga, xususan, ularning asosiy psixologik xususiyatlariga yoki shaxsiy xususiyatlariga oid umumlashmalardir. Stereotiplar oddiy psixologik jarayonlarning muqarrar mahsulidir[1]. Stereotiplar dunyo haqidagi ma‘lumotlarni tartibga solishga yordam beradigan bebaho aqliy ko‘mak hisoblanadi. Stereotiplar insonga uning atrof-muhitidagi boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishga imkon beradi. Har bir xalq haqida o‘rnatilgan fikrlar uning hayotga, ishga, sevgi va do‘stlikka, o‘ziga va atrofidagi dunyoga nisbatan bo‘lgan munosabatiga asoslanadi. Ko‘p hollarda, boshqa millat vakillarining, begona mamlakat odamlarining urf-odatlarini, stereotiplari, ijtimoiy normalari, xulq-atvor, tarbiya haqidagi qarashlari boshqa birinikidan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham muloqotga yordam beradigan yoki to‘sqinlik qiladigan stereotiplarni tushunish shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omil sifatida xizmat qiladi, deyishimiz mumkin. Standartlar ma‘lum milliy xususiyatlarni tushunishga yordam bersa, stereotiplar har doim ham bunday emas, chunki stereotiplar dinamik hodisa bo‘lib, ularning tarkibiy qismlari o‘zgarishi mumkin. Biz madaniyatning boshqalarga nisbatan bizning atributlarimizga qanday ta‘sir qilishini bilish maqsadida odamlarning xatti-harakatlarini tahlil qilamiz. Biz, odatda, boshqa odamlarning ichki holati yoki kayfiyati haqida ularning xatti-harakatlariga qarab xulosa chiqaramiz. Ushbu moyillik "xato atributlar" deb ataladi. Madaniyat ichidagi muloqotda interaktsiya ishtirokchilari bir xil asosiy qoidalardan yashirincha foydalanadilar. Biz umumiy aloqalarni amalga oshirganimizda madaniy chegaralarning mavjudligiga, boshqa millat, madaniyat vakillarining qarshisida o‘zimizni ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda tutishimiz lozimligiga qat‘iy amal qilishga intilamiz. Ammo madaniyat ichidagi vaziyatlarda ham, biz ko‘rib chiqiladigan narsalardan tashqarida bo‘lgan odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganimizda ham "normal" yoki "ijtimoiy jihatdan maqbul" ayrim qiyinchiliklarga duch kelamiz. Odatda, boshqa millat, boshqa madaniyat vakillari yubormoqchi bo‘lgan signallarni talqin qilganda ular biz o‘z madaniyatimiz vakillaridan kutadigan madaniy qoidalarga mos kelmaydi. Biz, ko‘pincha, bunday xatti-harakatlarga salbiy munosabatda bo‘lamiz va ularni qabul qilishni istamaymiz. Ularni "yomon" deb hisoblab, "ahmoq", "yomon xulqli" yoki "aqlsiz"ga o‘xshagan salbiy dispozitsion atributlarni ishlab chiqarishimiz mumkin[2]. Madaniyatlararo interaktsiya tushunchasi mavjud bo‘lib, bu

jarayon ishtirokchilari ko'pincha muloqotda og'zaki tildan foydalanadilar, bu ulardan kamida bittasiga xos emas, ba'zan ikkalasi uchun ham tegishli bo'ladi.

Metodika. Bizning olib borayotgan tadqiqot ishimizdan maqsad O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalarning ta'lim tizimiga ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini o'rganish edi. Buning uchun ayni paytda Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro tibbiyot institutida ta'lim olayotgan chet ellik talabalarda so'rovnoma o'tkazildi Biz asosiy e'tiborni 1 va 4 kurslarga qaratdik, chunki 1-kurs talabari yangi muhit, yangi sharoit, yangi tizimga endi moslashish jarayonini boshidan kechirayotgan bo'lishadi. 4-kurs talabari esa birmuncha adaptatsiya hosil qilgan, o'zi uchun zarur ko'nikmalarni o'zlashtirgan bo'lishi hisobga olindi. So'rovnomada xorijiy talabalarning yangi madaniy muhitda hayotning muhim jihatlari, shu jumladan, tilga madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida munosabati, ijtimoiy muhitga qo'shilish va ta'lim jarayoni mobaynida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga oid savollar shakllantiriladi. So'rovnoma davomida savollarni yaxshiroq va aniq tushunish uchun so'rovnoma ingliz, rus tillariga tarjima qilindi. Talabalarning yangi sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirishning muhim jihatlardan biri bu ularning mahalliy aholi bilan aloqa qilish imkoniyati va bo'sh vaqtini tashkil etishdir. Birgalikda vaqt o'tkazish mezbon mamlakatning madaniy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, tillarni progressiv o'rganishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, biz bu yerda o'zbek tili haqida aniq ijtimoiy-madaniy moslashuv prizmasi orqali, u yashash muhitida muloqot qilish usuli sifatida harakat qilganda gapiramiz. O'zbek tili bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli ko'pincha mudofaa reaksiyasi paydo bo'ladi, bu chet ellik talabalar nng universitet va mahalliy hamjamiyatning madaniy hayotida ishtirok etmasligida namoyon bo'ladi. Moslashuv jarayonining bunday rivojlanishi ichki his-tuyg'ularni, apatiyani va haqiqatni rad etishni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham effektiv natijalarga ta'sir qiladi, garchi do'stlik tarmoqlari bo'yicha tadqiqotlar tarmoqlar sonidan ko'ra haqiqiy yordamning miqdori va sifatiga ko'proq e'tibor bersa-da, ham mezbon, ham vatandoshlar tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash talabalarning psixologik farovonligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash “uy sog'inchi kasalligi” ni ham yengillashtiradi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati mahalliy sharoitga, muhitga, ta'lim tizimiga tezroq moslashishlariga yordam bo'lishi uchun o'zbek tilini o'rganish maqsadlari borligini bildirishdi. Tadqiqot ishtirokchilarida muloqotning yetishmasligi muammosi juda keskin va faqat 20 foiz talabalar bo'sh vaqtlarini yaxshi tashkil etilgan va psixologik dam olish uchun yetarli deb hisoblashadi. Tadqiqotimizda qatnashgan respondentlarimizning aksariyati hindistonlik va pokistonlik talabalar bo'lib, ularning yarmidan kamrog'i o'zbeklar bilan yaqin ishonchli munosabatlarga ega, ammo o'z vatandoshlari bilan muloqot qilishni afzal ko'radi. Ko'rib chiqilgan jihat, bizning fikrimizcha, fikrlash jarayonlarining chuqurligini tushunish nuqtayi nazaridan muhimdir. Shu bilan birga, respondentlarning haqiqiy tasvirini buzadigan ijtimoiy kutilgan javoblarga bo'lgan istagini hisobga olish kerak. Shu sababli, chet ellik talabalarning boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga qanday munosabatda bo'lishlari, ular boshqa mamlakatda o'zlarini qanchalik qulay his qilishlari haqida ma'lumot muhimdir. Boshqa odamlarga nisbatan ishonchsizlikning yuqori darajasiga e'tibor qaratiladi, bu xorijiy talabalarning tashqi muhitida o'zaro ta'sir tarmog'ini yaratish va rivojlantirishga va ularning mavjud haqiqatlarga muvaffaqiyatli moslashishiga to'sqinlik qiladi. Chet ellik talabalar tomonidan atrof-dagi voqelikni to'liq idrok etmaslik ularning qabul qiluvchi mamlakatning ijtimoiy muhitiga jalb qilish muammolaridan dalolat beradi. Bu yerda biz ma'lum bir adaptiv assimetriya haqida gapirishimiz kerak. Mavjud sharoitlarda talaba migrant o'zini tutish usullarida kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi. Biroq, bu o'zgarishlar rasmiy xarakterga ega. Biz tadqiqot ishimiz mobaynida respondentlarga “Sizga o'zbek madaniyati yoqadimi?”- degan savol bilan murojaat qildik. Bu savolga ijobiy javoblarning yuqori foizi o'zbek madaniyati va talabalar kelgan mamlakatlar madaniyati o'rtasidagi jiddiy qiymat va me'yoriy masofani hisobga olgan holda kutilmagan dalda beruvchi lahzadir. Shu bilan birga, respondentlarning ijtimoiy ma'qullangan javoblarga bo'lgan ichki istagini hisobga olish kerak. Madaniy moslashuv sur'atlarini tezlashtirishning asosiy yo'li, yuqorida ta'kidlanganidek, mezbon davlat tilini o'rganishdir. Bu o'zbek madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytirishga, xavfsizlik tuyg'usini uyg'otishga va o'zaro ta'sir tizimida ijtimoiy moslashuv yetishmasligini qoplashga imkon beradi. Xorijiy talabalar uchun yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishning eng muhim omillari til to'sig'ini bartaraf etish, o'zaro aloqaning qulay aloqa tizimini yaratish, O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitlariga ko'nikish ekanligi aniqlandi. Respondentlarning aksariyati o'zbek madaniyatini yoqtirishga rozi bo'lishdi. Bu haqiqat -o'zbek haqiqatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xulosa qilinadiki, moslashish jarayoni nafaqat shaxsning atrof-muhitni “moslashtirish” harakatlari, balki, atrof-muhitning shaxsni konfliktsiz o'zlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini ham o'z ichiga oladi. Aynan shu asosni biz optimallashtirish uchun ta'lim faoliyatida qo'llashimiz mumkin.

Empirik tahlil. Madaniyatlararo ta'lim quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- madaniyatlararo aloqa ishtirokchilarini jamiyatdagi madaniy farqlar va diversifikatsiya bilan o'zaro munosabatda bo'lishga o'rgatish va ularga yordam berish;
-ushbu qobiliyatni egallash uchun zarur ko'nikmalar (madaniyatlararo aloqa ko'nikmalari) va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish;

-intuitiv madaniy xilma-xillik bilan jamiyatda ishlashni tushunish, o'z madaniy qadriyatlarini tahlil qilish;

- bag'rikenglik, o'zaro hurmat va tushunishni rag'batlantirish;

-turli madaniyatli shaxslar va shaxslar guruhlariga ochiqlik, etnik, milliy, diniy o'tmish.

Chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga ijtimoiy-psixologik moslashuvining muvaffaqiyatini ta'minlash uchun samarali madaniyatlararo muloqotga xalaqit beradigan bir nechta asosiy to'siqlarni bartaraf etish talab etiladi. Ular quyidagilar:

1. O'xshashliklarni taxmin qilish. Madaniyatlararo aloqada tushunmovchilikning sabablaridan biri bu odamlar sodda tarzda taxmin qiladigan narsadir, go'yo ularning barchasi bir xil yoki hech bo'lmaganda bir-biri bilan osongina muloqot qilish uchun yetarlicha o'xshash. Albatta, biologik va ijtimoiy ehtiyojlardagi bir qator asosiy o'xshashliklar barcha odamlarga xosdir. Biroq, aloqa-bu o'ziga xos madaniyatlar va jamiyatlar tomonidan shakllantiriladigan noyob insoniy xususiyatdir.

2. Bundan tashqari, ba'zi madaniyatlardan kelganlar boshqalarga qaraganda o'xshashliklarga nisbatan ko'proq taxminlar qilishadi, ya'ni odamlarning har xil madaniyatlar haqida boshqalar ham ularga o'xshash degan taxminlari ko'p hollarda samarali madaniyatlararo muloqotga xalaqit beradi.

3. Til farqlari. Odamlar turlicha tilda muloqot qilishga harakat qilganda, aksariyat holatlarda tilni mukammal bilmaydi, ular o'z fikrlarini ifoda etishlari mobaynida ko'pincha so'z, ibora yoki jumla b faqat bitta ma'noga ega ekanligiga ishonishadi. Bunday taxmin qilish hamma narsani e'tiborsiz qoldirishni anglatadi.

4. Noto'g'ri og'zaki bo'lmagan talqinlar. Har qanday madaniyatda og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar kommunikativ xatti-harakatlarning muhim qismini tashkil qiladi. Og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni noto'g'ri talqin qilish orqali aloqa jarayonini buzadigan nizolar yoki qarama-qarshiliklarga olib keladigan turli holatlar kelib chiqishi mumkin.

5. Xurofot va stereotiplar. Yuqorida aytib o'tilganidek, stereotiplar va odamlarga nisbatan noto'g'ri qarashlar bizning barcha idroklerimiz va kommunikativ aloqalarimizga ta'sir qiladigan tabiiy va muqarrar psixologik jarayonlardir. Stereotiplarga haddan tashqari ishonish insonlarga ayrim vaziyatlarda xalaqit berishi mumkin. Biz obyektiv ravishda, boshqa odamlarga va ularning xabarlariga qaraymiz va ushbu xabarlarini biz yetkazmoqchi bo'lgan kalitda talqin qilishga yordam beradigan usullarni qidiramiz.

6. Baholash istagi. Madaniy qadriyatlar bizning boshqa odamlarga va atrofimizdagi dunyoga nisbatan atributlarimizga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

7. Turli xil qadriyatlar ham salbiy baholarni keltirib chiqarishi mumkin, ular samarali madaniyatlararo aloqa yo'lidagi yana bir to'siq bo'ladi.

8. Yuqori tashvish yoki kuchlanish. Madaniyatlararo aloqa ko'pincha madaniyat ichidagi muloqotning tanish holatlariga qaraganda ko'proq tashvish va stress bilan bog'liq. Haddan tashqari tashvish va stress madaniyatlararo muloqotga faqat zarar yetkazadi[3].

Madaniyatlararo muloqotda uning o'ziga xos shakli katta ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o'zaro hurmat va tushunish asosida munosabat o'rnatish;
- siyosatga oid ta'lim yondashuvlari va tajribalarini almashish,
- inson huquqlari va madaniy ta'lim;
- mamlakatlar o'rtasida dialogda faol ishtirok etishga imkon beradigan qobiliyat va ko'nikmalarni o'rgatish va yanada rivojlantirish.

Bunday muloqot gender tafovutlarini, diniy qarama-qarshiliklarni, til farqlarini bartaraf etishga, o'qituvchilar va ma'muriyatning malakasini oshirishga qaratilgan.

Xalqaro auditoriyada mintaqaviy temperamentlarning xususiyatlarini bilish muhimdir. Madaniyatlararo moslashuv jarayonida psixologik to'siqlar o'z-o'zidan yuzaga keladi. Xo'sh, psixologik to'siqlarning o'zi nima va ularni qanday yengish kerak? Ayni paytda biz tadqiqot olib borayotgan masalamiz chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi butun moslashish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ularning ijtimoiy-madaniy moslashuvining ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy, kasbiy va madaniy muhitga psixologik ishtiroki bilan bevosita aloqador. Ushbu muhit shaxsning hayot rejalarini amalga oshirish sohasi bo'lib hisoblanadi, shaxsning ehtiyojlari va intilishlari, shaxsning shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun eng qulay vosita hisoblanadi. Psixologiyada passiv moslashuv hamda faol moslashuv tushunchalari mavjud bo'lib, passiv moslashuv natijasi bu faqat tashqi

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>BAXRONOVA Komila Yadgorovna</i>	Ota-onalik munosabatlari shakllanishining bola xulq-atvor buzilishlariga ta'siri	7
2.	<i>GULYAMOV Djaxangir Raxmatullaevich, AZIMJONOVA Rushana Rashid qizi</i>	Maktab o'quvchilari xulqidagi me'yordan og'ishlar: ilmiy tadqiqotlar talqini	12
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>АЛЛАМБЕРГЕНОВА Мухаббат Хасанбаевна</i>	Таълимда ижтимоий тармоқлар орқали электрон ресурслардан фойдаланиш	18
4.	<i>АКБАРАЛИЙЕВА Asilaxon Tojiddinovna</i>	Bo'lajak psixologlarning konsultativ faoliyat malakasini tarkib toptiruvchi kasbiy-shaxsiy sifatlar	23
5.	<i>AMONOVA Nargiza Muxtarovna</i>	Talabalarda aqliy kompetentlikni rivojlantirish - dolzarb pedagogik muammo sifatida	29
6.	<i>ARALOV Sanjar Abdivaitovich</i>	Talabalarning kasbiy kompetentligini pedagogik fasilitatsiya asosida rivojlantirishning konseptual asoslari	33
7.	<i>ARALOVA Dilafruz Dushaboy qizi</i>	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida	39
8.	<i>BURXONOVA Manzura Xurshid qizi</i>	Pedagogik mahorat va ijtimoiy munosabatlar orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish	43
9.	<i>HAYITOVA Zilola Maxmudjonovna</i>	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillar	48
10.	<i>MURATOV Djaxongir Djurayevich</i>	Ta'lim jarayonida harakat faoliyatini takomillashtirish samaradorligi	54
11.	<i>NAZAROV Akmal Mardonovich</i>	Yoshlarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish psixologik mexanizmlari	61
12.	<i>NAZAROVA Manzura Mustaf qizi</i>	Chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli moslashuv kategoriyalari	67
13.	<i>RAJABOV Azamat Sharifovich</i>	Bo'lajak musiqa o'qituvchilarning ijodiy kompetentsiyasini shakllantirish	72
14.	<i>RAJAROVA Iroda Ernazarovna</i>	Insonlarda jarohatdan keyingi stress buzilishining ilmiy manbalarda o'rganilishi	76
15.	<i>РАМАЗОНОВ Жаҳонгир Джалолович, САЙИДАХМЕДОВА Лола Абдурасуловна</i>	Кичик гуруҳларни ўрганиш психологик муаммо сифатида	82
16.	<i>RO'ZIYEVA Saodat Hasanovna</i>	Talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning zarurati	87
17.	<i>RUSTAMOV Shavkat Shuxrat o'g'li, SALIMOVA Mohiniso Jamil qizi</i>	Talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish metodologiyasi	92
18.	<i>SATTAROVA Shaxnozaxon Qo'chqarovna</i>	Ta'limda bo'lajak pedagoglar pozitiv tafakkuriga ta'sir etish omillarining psixologik asoslari	96
19.	<i>UZAQOV Nomozali Hamdamovich</i>	Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash – ma'naviy- ma'rifiy ishlarning boshqarishning asosiy mexanizmi sifatida	101
20.	<i>MAXMUDOVA Zulfiya Mehmonovna,</i>	Bo'lajak amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	105